xususan, tasavvufiy adabiyotga doir nazariy va amaliy masalalarni yoritishda tarixiy-kognitiv va antropologik uslullarni qo‘shib, yangicha yechimlarni taklif etdi. U ko‘pincha ilmiy e’tibordan chetda qolgan “pastki qatlam” manbalar – darveshlar kundaligi, xalq orasidagi rivoyatlar, tasavvufiy she’r va qo‘shiqlar – ni ilmiy muomalaga kiritish orqali Markaziy Osiyo tasavvufiy hayotining naqadar boy va rang-barang manzarasini chizib berdi. Papasning ishlari ko‘rsatdiki, Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi va adabiyoti bir butun madaniy hodisa bo‘lib, unda sulton ham, darvesh ham, she’riyat ham, xalq an’analari ham uzviy ravishda bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv milliy va mintaqaviy chegaralardan chiqib, tasavvufiy merosni global islomiy madaniyat kontekstida talqin qilish zarurligini asoslab berdi.

Taqdim etilgan ilmiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda tasavvufiy adabiyot taraqqiyoti doimo avlodlar davomiyligi va madaniyatlararo almashinuv bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Papas bu haqiqatni aniq misollar bilan isbotlab, adabiyotshunoslik va tarix faniga qo‘shimcha bilimlar kiritdi. Uning xulosalari bugungi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Devin DeWeese. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tükles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. Pennsylvania State University Press, 1994. (O‘zbek tilidagi tarjima orqali keltirilgan ma’lumotlar).

(2). Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.филол.наук, Ташкент, 1991, 424 с.

(3). Alexandre Papas. Ainsi parlait le derviche: Contes, témoignages et études sur les saints d’Asie centrale. Paris: Maisonneuve & Larose – IFRI, 2008.

(4). Alexandre Papas & Thibaut d’Hubert (eds.). Jami in Regional Contexts: The Reception of ʿAbd al-Rahman Jami’s Works in the Muslim World. London: I.B. Tauris, 2019.

(5). Alexandre Papas. “Soufisme et politique entre Chine, Tibet et Turkestan (XVIIIe–XIXe siècles)”. Journal of the Economic and Social History of the Orient, 58(4), 2015, pp. 531–569.

(6). Jo-Ann Gross. The Begums of Bukhara: A Study of Female Authority in Nineteenth Century Central Asia. Modern Intellectual and Political History of the Middle East Series, 2016 (Markaziy Osiyoda muqaddas sulolalar tarixi).

(7). Anke von Kügelgen. Der Historiographische Diskurs über das Verhältnis von Islam und Staat in Zentralasien (16.–19. Jahrhundert). Berlin, Klaus Schwarz Verlag, 2002.

Rakhimova Dilfuza Masharip qizi (TTA Urganch filiali o‘qituvchisi; e-mail: dilfuza_raximova1@icloud.com)

KAZUO ISHIGURO ASARLARIDA MULTIKULTURALIZM VA SHAXSIY XOTIRA: O‘TMISH, XOTIRA VA HAYOTNING MURAKKABLIGI

Annotatsiya. *Kazuo Ishiguro asarlaridagi multikulturalizm va shaxsiy xotira mavzularini tahlil qiladi. Ishiguro, yapon kelib chiqishi bo‘lgan britaniyalik muallif sifatida, madaniyatlar o‘rtasidagi sintezi va shaxsiy tajribalarni o‘z asarlarida muvaffaqiyatli aks ettiradi. Maqolada, uning “Tepaliklar tumanda” va “Beqaror dunyo rassomi” romanlaridagi asosiy qahramonlarning shaxsiy xotiralari va o‘z o‘tmishi bilan munosabatlari yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining murakkab til uslubi va “soxta tarjima” effektini yaratish maqsadida ingliz va yapon muloqotidagi ko‘prik sifatida ishlatilgan til elementlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kazuo Ishiguro, multikulturalizm, shaxsiy xotira,“Tepaliklar tumanda”, “Beqaror dunyo rassomi”, ingliz va yapon muloqoti, hikoyachilik, estetik tajriba, tarixiy kontekst, shaxsiy va jamiyat xotirasi.*

Рахимова Дильфуза Машарип кизи (преподаватель Ургенчского филиала ТТА; e-mail: dilfuza_raximova1@icloud.com)

МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМ И ЛИЧНАЯ ПАМЯТЬ В ТВОРЧЕСТВЕ КАДЗУО ИСИГУРО: ПРОШЛОЕ, ПАМЯТЬ И СЛОЖНОСТЬ ЖИЗНИ

Аннотация. *Анализируются темы мультикультурализма и личной памяти в творчестве Кадзуо Исигуро. Исигуро, как британский писатель японского происхождения, успешно отражает в своих произведениях синтез культур и личного опыта. В статье исследуются личные воспоминания и отношения со своим прошлым главных героев романов «Холмы в тумане» и «Художник нестабильного мира». В статье также анализируется сложный языковой стиль писателя и языковые элементы, используемые в качестве связующего звена между английским и японским языками с целью создания эффекта «фальшивого перевода».*

Ключевые слова: *Кадзуо Исигуро, мультикультурализм, личная память, «Холмы в тумане», «Художник нестабильного мира», англо-японский диалог, повествование, эстетический опыт, исторический контекст, личная и общественная память.*

Rakhimova Dilfuza Masharip qizi (Teacher of the Urgench Branch of the TTA;
e-mail: dilfuza_rakhimova1@icloud.com)

MULTICULTURALISM AND PERSONAL MEMORY IN THE WORKS OF KAZUO ISHIGURO: THE COMPLEXITY OF THE PAST, MEMORY, AND LIFE

Annotation. *The article analyzes the themes of multiculturalism and personal memory in the works of Kazuo Ishiguro. Ishiguro, as a British writer of Japanese descent, successfully reflects the synthesis of cultures and personal experiences in his works. The article examines the personal memories and relationships with their past of the main characters in the novels "Hills in the Mist" and "Artist of the Unstable World". The article also analyzes the complex linguistic style of the writer and the linguistic elements used as a link between English and Japanese in order to create the effect of "false translation".*

Keywords: *Kazuo Ishiguro, multiculturalism, personal memory, "The Hills in the Mist", "The Artist of the Unstable World", English-Japanese dialogue, storytelling, aesthetic experience, historical context, personal and social memory.*

Kirish (Introduction). Kazuo Ishiguro – zamonaviy adabiyotning eng muhim va ta'sirchan ovozlaridan biri bo'lib, uning asarlari ko'plab madaniyatlar va tarixiy kontekstlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarga chuqur e'tibor qaratadi. 1954-yilda Yaponiyaning Nagasaki shahrida tug'ilgan, keyinchalik, Britaniyaga ko'chib o'tgan Ishiguro, o'zining shaxsiy tarixi orqali multiculturalizm mavzusini o'z asarlarida ochib beradi. Ishiguro asarlarida o'z o'tmishi, shaxsiy xotiralar va madaniy identitet insonning ichki kurashlari bilan birgalikda ochiladi. Ushbu maqolada Ishiguroning "Tepaliklar tumanda" va "Beqaror dunyo rassomi" romanlari orqali shaxsiy xotira, madaniyatlararo muloqot va tarixiy kontekstlarni o'rganamiz. Bu asarlar, qahramonlar o'zlarining shaxsiy tarixlari bilan yuzma-yuz kelayotganda, vaqt, joy va madaniyatni qanday qabul qilishlarini aks ettiradi. Maqola davomida, shuningdek, Ishigoroning bilingvistik yondashuvi, asarlardagi til va muloqot usullari ko'rib chiqiladi va bu usullar orqali o'quvchilarga qahramonlarning histuyg'ulari, muammolari va murakkab hayotiy tajribalari qanday etkazilishi tahlil etiladi. Shu tariqa, ushbu kirish qismi Ishiguroning asarlaridagi multikulturalizm va shaxsiy xotira temalarining o'zaro bog'liqligini yoritib beradi va ularni tushunishda muhim kontekst taqdim etadi. Maqola oxirida, yapon va ingliz madaniyatlarining o'zaro aloqa va ta'siri, shuningdek, adabiyot orqali insonning ichki dunyosi va ijtimoiy muammolarni qanday yangitdan talqin etish mumkinligini ko'rsatishga harakat qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Kazuo Ishiguro asarlarida multikulturalizm va shaxsiy xotira temalarini o'rganish jarayonida o'ziga xos adabiyotlar mavjud. Ularning tahlili, Ishiguroning yozuvi va hikoyachiligi haqida chuqurroq tushuncha beradi. Multikulturalizm va identitet: Adabiyotda multikulturalizm va identitetni o'rganadigan ko'plab mualliflar Ishiguroning asarlarini misol sifatida keltiradilar. Masalan, Edward Saidning "Orientalism" asari shunday nazaria va kontseptsiya bilan Ishiguroning yapon va ingliz madaniyatlari o'rtasidagi munosabatlarini har qanday xulq-atvor yoki matnning kontekstual asosida ko'rish uchun foydali maqola hisoblanadi. Ishiguroning asarlarida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar va bog'lanishlar, shuningdek, o'z-o'zini anglash va identitet ta'siri yangicha yondoshiladi. Xotira va tarix: Ishiguroning asarlaridagi xotira masalasi, muhim tarixiy voqealar (masalan, Ikkinchi jahon urushi) bilan bog'liq. "Tepaliklar tumanda" va "Beqaror dunyo rassomi" romanlarida qahramonlar o'z hayotlari va tarixiy voqealar o'rtasidagi bog'lanishni qidiradilar. Paul Ricoeurning "Memory, History, Forgetting" asari, xotira va tarix o'rtasidagi o'zgaruvchan bog'lanishlarni tahlil etadi va Ishiguroning asarlari bu nazariyani sinovdan o'tkazadi. Til va muloqot: Ishiguro asarlarida til va muloqot haqidagi tadqiqotlar ham muhimdir. "Soxta tarjima" konsepsiyasi orqali muallif o'zining bilingvistik uslublarini yaratarak, muloqotdagi mushkulotlarni va madaniyatlararo tushunmovchiliklarni aks ettiradi. Umberto Eko va Mikhail Bakhtin kabi nazariyotchilarning asarlari bu mavzuni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Psixologiya va ichki kurashlar: Ishiguroning qahramonlari ko'pincha o'z ichki xotiralaridan va psixologik kurashlaridan azob chekadilar. Sigmund Freydan tortib, Junggacha bo'lgan psixologik nazariyalar, bu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Reaserch Methodolgy). Literaturani tahlil qilish: Ishiguro asarlaridagi muhim mavzularni, xarakterlarni va vaziyatlarni juda chuqur tahlil qilish maqsadida, turli xil adabiyotlar va ilmiy maqolalar ko'rib chiqiladi. Bu bosqichda mualliflarning asarlariga qo'yilgan izohlar va tahlillar orqali muloqot, xotira va madaniyat masalalari o'zaro bog'langan holda o'rganiladi. Matniy tahlil: Ishiguro asarlarida matnning strukturasini chiqarib tashlash va qahramonlarning ichki dunyosi, hissiyotlari, shaxsiy

tarixlari va muammolarini tushunishga qaratilgan matniy tahlil o‘rganiladi. Bu texnik usulda o‘qish va matnni ravon tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Qahramonlarning ichki monologlari: Ishiguro asarlarida qahramonlarning ichki monologlari muhim rol o‘ynaydi. Ularning his-tuyg‘ulari va o‘z-o‘zini anglash jarayonini aniqlash maqsadida, ichki monologlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda qahramonlarning shaxsiy xotiralaridan qanday azob chekkanliklarini va ularni qanday qabul qilishlarini tushunish muhim ahamiyatga ega. Tahliliy ichki va tashqi kontekst: Ishiguroning asarlarini o‘rganishda nafaqat individual qahramonlar, balki o‘z vaqtida yashagan madaniyatlar va tarixiy kontekstlarni o‘rganish zarur. Bu asarlarning yozilishi va qahramonlarning harakatlari bilan bog‘liq voqealar va ijtimoiy muhitni baholashga yordam beradi. Qo‘shimcha manbalar: Ishiguro haqida yozilgan tahliliy maqolalar, intervyular, hujjatlar va biografiyalar tadqiqot davomida foydalaniladi. Bu manbalar uning ijodiy jarayoni, uslubi va mulohazalari haqida yanada ko‘proq ma’lumot beradi. O‘quvchilar reaksiyasini o‘rganish: Tadqiqotda, Ishiguroning asarlari ustida o‘qiganlarning fikr va izohlarini o‘z ichiga olgan hisobotlar va intervyular o‘rganiladi. Bu o‘quvchilarning asarlarni qanday qabul qilishi, qanday his-tuyg‘ularni his qilishi va tajribalari haqida ma’lumot to‘plashda yordam beradi.Tadqiqot haqida aniq va mukammal tushuncha yaratish, Ishiguroning asarlaridagi multikulturalizm va shaxsiy xotira o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash maqsad qilingan. Tahlil natijalari esa badiiy adabiyotlar va madaniyatlararo muammolarni anglashda yordam beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Multikulturalizmning aks etishi: Ishiguro asarlarida ingliz va yapon madaniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va sintez jarayoni ko‘rinadi. Masalan, "Tepaliklar tumanda" romanida qahramonning britaniya muhitida yashashi, ammo o‘zining yapon ildizlarini unutmasligi, uning shaxsiy identitetiga ta’sir qiladi. Ishiguroning qahramonlari doimo ikki madaniyat o‘rtasida tuganmas bir ichki kurashni boshdan kechirishadi, bu esa ularning shaxsiy xotiralari bilan bog‘liq. Shaxsiy xotira va o‘zini anglash: Qahramonlarning xotiralari, asarlarida markaziy o‘rin egallaydi. Ular o‘z hayotlari va o‘tgan voqealari bilan qanday bog‘lanishayotganini tushunishda o‘zlarini topishga urinadilar. “Beqaror dunyo rassomi” romanida, Matsui Ono o‘z hayotidagi epizodlarni eslab, o‘z san’atini va shaxsiy tarixini qayta ko‘rib chiqadi. Ushbu tahlil qahramonlarning xotira jarayonlari orqali o‘zlarini tanib olishga harakatlarini ko‘rsatadi. Xotira tumanlari: Ishiguro o‘z asarlarida xotira tumanlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan. Qahramonlar o‘z xotiralari va his-tuyg‘ulari orqali hayotning murakkabligi va noaniqligini ta’kidlaydilar. O‘z hayotlaridagi muhim voqealarni eslashga uringanida, ko‘pincha, qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa o‘z-o‘zini anglash jarayonini yanada murakkablashtiradi.Til va kommunikatziya muammolari: Asarlarda til va muloqot masalalari ham alohida ahamiyatga ega. Ishiguroning bilingvistik uslublari, muloqotdagi noaniqliklarni aks ettiradi. U “soxta tarjima” usulidan foydalanib, ikkilamchi madaniyatda yashovchi qahramonlarning kuchli hissiyotlarini ifodalaydi, o‘ziga xos bir til uslubini yaratadi. O‘quvchi tajribasi: Ishiguroning asarlarini o‘qigan o‘quvchilarning munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ularning fikrlariga ko‘ra, Ishiguroning asarlari nafaqat qahramonlarning harakatlarini, balki o‘quvchilarning ichki kurashlariga ham ta’sir qiladi. O‘quvchilar Ishiguroning xotira va identitet haqida fikr yuritishlari, faqat shaxsiy o‘ziga xos tajribalaridan kelib chiqqan holda, turli hissiyotlarni his etadilar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Ishiguro asarlarida multikulturalizm va shaxsiy xotira bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Qahramonlar o‘z o‘tmishlari bilan yuzma-yuz kelib, o‘zlarini qanday anglashlari va ta’sirchanliklarini ko‘rsatadilar. Ushbu tahlil Ishigoroning adabiyotdagi o‘ziga xos yondashuvini, shuningdek, uning asarlarida shaxsiy va madaniy identitet o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar haqida yanada mukammal tasavvur beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). 1. Kazuo Ishiguro asarlarida multikulturalizm va shaxsiy xotira mavzularining qanday aks ettirilishini o‘rganishga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ishiguro asarlaridagi qahramonlar o‘z tarixlari bilan doimo tengdosh muammolarga duch kelishadi. Ularning shaxsiy xotiralari va madaniyatlararo bog‘lanishlari, o‘z-o‘zini anglash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Multikulturalizm, qahramonlarning ichki kurashlari, obyektiv va subyektiv xotira o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar, Ishiguro ijodining ajralmas qismi sifatida ko‘rinadi.

2. Madaniyatlararo sintez: Ishiguro asarlarida yapon va ingliz madaniyatlari o‘rtasida davom etayotgan o‘zaro ta’sirlar, qahramonlarning shaxsiy tarixlarini shakllantiradi. Bu jarayon, ularning identitetlarini va o‘zini anglash jarayonlarini murakkablashtiradi. Xotira va shaxsiy tarix: Qahramonlar o‘z xotiralari bilan bog‘langan holda, o‘z-o‘zini anglashga harakat qiladilar. Ishiguro asarlarida xotira tumanlari, shaxsiy hayotning noaniqligi va murakkabligi bilan bevosita bog‘liqdir.

3. Kommunikativ muammolar: Ishiguroning bilingvistik yondashuvlari va “soxta tarjima” effektlari o‘quvchilarga hissiyot va muloqotdagi noaniqliklarni yetkazishga yordam beradi, bu esa ikki madaniyat o‘rtasidagi muloqotning qiyinchiliklarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Ishiguro, K. (1982). A Pale View of Hills. Faber & Faber.
(2). Ishiguro, K. (1986). An Artist of the Floating World. Faber & Faber.
(3). Ishiguro, K. (1989). The Remains of the Day. Faber & Faber.
(4). Ishiguro, K. (2005). Never Let Me Go. Knopf.
(5). Said, E.W. (1978). Orientalism. Pantheon Books.
(6). Ricoeur, P. (2004). Memory, History, Forgetting. University of Chicago Press.
(7). Eco, U. (1990). The Limits of Interpretation. Indiana University Press.
(8). Bakhtin, M. M. (1981). The Dialogic Imagination. Four Essays. University of Texas Press.
(9). Danius, S. (2017). The Invention of Celebrity: Kazuo Ishiguro and the New Task of the Novelist. The New Yorker.
(10). Matus, J. (2015). Kazuo Ishiguro: A Critical Study. Bloomsbury Academic.
(11). Caldwell, P. (2009). “Memory and Mind: The Use of Memory in Kazuo Ishiguro‘s Fiction”, Journal of Contemporary Literature, 4(2), p. 143–162.
(12). Chen, J. (2012). “Negotiating Identity in Kazuo Ishiguro‘s Fiction”, Journal of Postcolonial Writing, 48 (6), p. 651–663.
(13). Malpas, S. (2010). The Place of Meaning: Science, Semiology, and the Futurity of Meaning. Cambridge University Press.